TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY RISKLAR BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYALARI.....	900
Kadirov Abdumalik Matkarimovich, Abduqodirova Shahzoda Ilhomidin qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINI IQTISODIY-EKOLOGIK JIHATDAN RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	904
Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi, Barnoqulova Marjona Otabek qizi	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY AKTIVLAR PORTFELLARINI RISK-DAROMAD DILEMMASI ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH (G. MARKOVIS VA J. TOBINNING PORTFEL NAZARIYASI ASOSIDA)	909
Kurbonov Xayrilla	
MAMLAKATIMIZNING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH	915
Mirzayev Rustam Ro'ziyevich	
РЫНОЧНЫЙ СПРОС И РАВНОВЕСИЕ	921
Камилова Наргиза Абдукаххоровна, Ашуров Сардоржон Зафаржонович	
XORIJIIY DAVLATLARDA AUDITORLIK FAOLIYATINING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYASI.....	925
Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li	
MARKETING-INTERNET XIZMATLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA SAVDO KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	929
Ismoilov Lazizbek Rasuljon o'g'li	
KORXONADA INNOVATSION BOSHQARUV MEXANIZMLARINING MAVJUD MODELLARINING RETROSPEKTIVASI.....	934
Toxirova Gullola Mirkamolovna	
SANOATNI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA TARMOQ KORXONALARI FAOLIYATIGA ESG TAMOIYILLARINI JORIY ETISHNING ROLI.....	940
Ne'matov Shoxruxbek Ma'murjon o'g'li	



SANOATNI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA TARMOQ KORXONALARI FAOLIYATIGA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING ROLI

Ne'matov Shoxruxbek Ma'murjon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: sh.nematov@tsue.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada sanoatni iqtisodiy rivojlantirish jarayonida tarmoq korxonalari faoliyatiga ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarini joriy etishning ahamiyati va roli batafsil yoritilgan. Tadqiqot doirasida qo'llanilgan metodlar ESG tamoyillarining tarmoq korxonalari faoliyati hamda sanoatning iqtisodiy rivojlanishiga ko'rsatayotgan kompleks ta'sirini har tomonlama ochib berishga yo'naltirilgan. Shuningdek, sanoat korxonalarida ESG tamoyillarini samarali joriy etish va ularning tarmoq miqyosidagi iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini kuchaytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sanoat, sanoat korxonalari, ESG, iqtisodiy rivojlanish, investitsiyalar, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik tamoyillar, yashil iqtisodiyot.

Abstract. This article examines in detail the importance and role of implementing ESG (Environmental, Social, and Governance) principles in the activities of industry enterprises within the framework of industrial economic development. The research methods applied in the study are aimed at comprehensively identifying the complex impact of ESG principles on enterprise performance and the economic development of the industrial sector. In addition, scientific and practical recommendations have been developed to ensure the effective implementation of ESG principles at industrial enterprises and to enhance their contribution to sectoral economic development.

Key words: industry, industrial enterprises, ESG, economic development, investment, social, economic, and environmental principles, green economy.

Аннотация. В данной статье подробно раскрыты значение и роль внедрения принципов ESG (Environmental, Social, Governance) в деятельность отраслевых предприятий в контексте экономического развития промышленности. Методы, использованные в ходе исследования, направлены на всестороннее выявление комплексного влияния принципов ESG на деятельность предприятий отрасли и экономическое развитие промышленного сектора. Кроме того, разработаны научно-практические предложения, ориентированные на эффективное внедрение принципов ESG на промышленных предприятиях и усиление их влияния на экономическое развитие отрасли.

Ключевые слова: промышленность, промышленные предприятия, ESG, экономическое развитие, инвестиции, социальные, экономические и экологические принципы, зелёная экономика.

KIRISH

Hozirgi global iqtisodiy tizimda barqaror rivojlanish tamoyillari davlatlar va korxonalarning strategik yo'nalishini belgilab beruvchi asosiy mezon sifatida shakllanib bormoqda. Ayniqsa, iqtisodiy o'sishni ta'minlashning asosiy ustuvor yo'nalishi bo'lgan sanoatni iqtisodiy rivojlantirish jarayoni nafaqat iqtisodiy-moliyaviy natijalarga, balki ekologik xavfsizlik, ijtimoiy mas'uliyat hamda boshqaruv samaradorligiga bog'liqligi bilan hozirgi zamon iqtisodiy siyosatining muhim ustuvor yo'nalishiga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, ESG (Environmental, Social, Governance) konsepsiyasi sanoatni iqtisodiy rivojlantirishning yangi tizimli paradigmasi sifatida jahon miqyosida keng qo'llanilmoqda.

ESG tamoyillari mohiyatan iqtisodiyot tarmoqlarining nafaqat foyda olishga yo'naltirilgan faoliyatini, balki jamiyat va tabiat oldidagi mas'uliyatini ham hisobga oluvchi zamonaviy korporativ madaniyatni ifodalaydi. Ushbu yondashuvda korxona faoliyatining samaradorligi faqat iqtisodiy-moliyaviy ko'rsatkichlar bilan emas, balki resurslardan oqilona foydalanish darajasi, ekologiyaga ta'siri, mehnat muhitining insoniyligi hamda boshqaruv



tizimining shaffofligi orqali baholanadi. Shu tariqa, ESG tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish iqtisodiy o'sishning sifat jihatidan yangi bosqichiga o'tishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ham "yashil iqtisodiyot" tamoyillariga asoslangan iqtisodiy siyosat ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-4477-sonli¹ Farmoni bilan tasdiqlangan ESG mezonlariga mos milliy mexanizmlarni joriy etish vazifasi belgilab berilgan [1]. Mazkur hujjat korxonalar faoliyatida ekologik samaradorlik, ijtimoiy barqarorlik va boshqaruv sifatini oshirish orqali sanoatni iqtisodiy rivojlantirish asosida barqaror iqtisodiy o'sishga erishish imkonini yaratishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Biroq, amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, sanoat korxonalarida ESG tamoyillarini joriy etish jarayoni hozircha yetarli darajada tizimli tus olmagan. Ko'plab xo'jalik yurituvchi subyektlar ESG konsepsiyasining mohiyatini, uning iqtisodiy samaradorlik va raqobatbardoshlikka ta'sirini to'liq anglab yetmagan. Shu bois, ESG mezonlarini milliy iqtisodiy muhitga mos holda joriy etish hamda uning sanoatni iqtisodiy rivojlantirishga ta'sirini baholash dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Globallashuvning hozirgi sharoitida ESG konsepsiyasi barqaror rivojlanish nazariyasining amaldagi evolyutsion bosqichi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu konsepsiyaning ildizlari XX asr oxirida jahon iqtisodiyotida shakllangan "Triple Bottom Line" modeliga borib taqaladi [3].

Mazkur modelga ko'ra, sanoat korxonalarining samaradorligi quyidagi uchta asosiy omilga bog'liqdir:

- moliyaviy natija;
- ijtimoiy ta'sir;
- ekologik barqarorlik.

Keyinchalik ushbu uch omilli tizim ESG nomini oldi va BMT, OECD, IFC hamda YEI standartlarida korporativ boshqaruvning ajralmas qismiga aylandi.

O. Amole va M. Emedolar ta'kidlashicha, ESG tamoyillari shunchaki qo'shimcha ijtimoiy-ekologik talab emas, balki korxonaning barqaror o'sishi va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlovchi muhim asos hisoblanadi [4].

I. Shaikh fikricha esa ESG ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan sanoat korxonalari, odatda, yaxshiroq operatsion samaradorlikka, yuqori daromadlilikka hamda pastroq risk darajasiga ega bo'ladi. Mazkur holat ESG tamoyillarini korxona barqaror o'sishining amaliy drayveri sifatida namoyon etadi [5].

Boshqacha aytganda, ESG ko'rsatkichlari bilan sanoatni iqtisodiy rivojlantirish o'rtasida uzoq muddatli ijobiy bog'liqlik mavjud bo'lib, ESG iqtisodiy o'sishning muhim drayveri sifatida qaraladi [6].

S. Namooq va Z. Abubakari tadqiqotlarida ESG barqarorlik ko'rsatkichlari bilan sanoatni iqtisodiy rivojlantirish o'rtasidagi uzoq muddatli bog'liqlik tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ushbu jarayonda inson kapitali va texnologik innovatsiyalar mediator omillar sifatida muhim ahamiyatga ega ekanligi qayd etilgan [7].

Ya'ni, ESG boshqaruvi korxona va tashkilotlarning barqaror transformatsiyasiga turtki beruvchi tizimli omil sifatida namoyon bo'lib, biznes modelini faqat foyda olishga yo'naltirish bilangina cheklanmay [8], balki ekologik va ijtimoiy mas'uliyat bilan uyg'unlashtirish orqali rivojlanishning yangi bosqichiga olib chiqadi [9].

Fikrimizcha, korxonalarda ESG tamoyillarini joriy etish nafaqat ijtimoiy va ekologik mas'uliyatni oshiradi, balki innovatsiya jarayonlarini ham tezlashtiradi. Innovatsiyalar esa, o'z navbatida, ESG ko'rsatkichlarini yanada yaxshilaydi va shu orqali iqtisodiy o'sishning "o'zini-o'zi kuchaytiruvchi spiral modeli" shakllanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda sanoat korxonalari faoliyatiga ESG tamoyillarini joriy etishning sanoatni iqtisodiy rivojlantirishga ta'sirini o'rganish uchun kompleks, tizimli va interdisiplinar metodlar majmuasidan foydalanildi. Shuningdek, tadqiqot mavzusi bo'yicha mavjud nazariy qarashlar o'rganilib, ular asosida mualliflik yondashuvlari bayon etildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Umuman olganda, ESG — bu iqtisodiy subyektlar faoliyatini faqat iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan emas, balki tabiiy muhitga ta'siri, jamoatchilik oldidagi mas'uliyati hamda boshqaruv tizimining shaffofligini ham hisobga olgan holda baholash tizimidir. Jumladan:

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-4477-sonli Farmoni: <https://lex.uz/docs/-4539502>



1. Environmental (E) tamoyili korxonaning tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi, chiqindilarni qayta ishlash, energiya tejamkorligi va uglerod izini kamaytirish darajasini qamrab oladi;

2. Social (S) yo'nalishi mehnat munosabatlari, xodimlar huquqlari, gender tengligi, jamoatchilik bilan hamkorlik hamda ijtimoiy infratuzilmaga qo'shilgan hissani baholaydi;

3. Governance (G) esa korporativ boshqaruv tizimi, ichki audit, strategik shaffoflik, hisobdorlik va korrupsiyaga qarshi kurash elementlarini o'z ichiga oladi.

Mazkur uchta o'lchovning birgalikdagi amaliy tatbiqi korxonaning iqtisodiy o'sishi bilan bir qatorda uning ijtimoiy va ekologik barqarorligini ham ta'minlaydi. Natijada, ESG faqat hisobot standarti emas, balki korxonaning strategik rivojlanish yo'nalishi sifatida namoyon bo'ladi.

Barqaror iqtisodiy o'sish tushunchasi jahon iqtisodiy nazariyasida uzoq yillardan beri ilmiy muhokamalar markazida bo'lib kelmoqda. Jumladan, Solou, Romer, Porter, Stiglits va Saks kabi olimlar iqtisodiy o'sishning sifat jihatini inson kapitali, innovatsiyalar va institutlar samaradorligi bilan bog'laydilar. ESG konsepsiyasi aynan ushbu nazariyalarning amaliy ifodasi bo'lib, iqtisodiy o'sishning sifat ko'rsatkichlarini belgilaydi.

Fikrimizcha, ESG asosidagi barqaror o'sish quyidagi funksional mexanizmlar orqali shakllanadi:

1. resurs tejamkorlik va energiya samaradorligi orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish (E tamoyili orqali);

2. ijtimoiy muhit va ishchi kuchining barqarorligini ta'minlash (S tamoyili orqali);

3. boshqaruvda shaffoflik va mas'uliyat orqali investitsiyaviy ishonchni kuchaytirish (G tamoyili orqali).

Shu orqali ESG iqtisodiy o'sishning miqdoriy ko'rsatkichlarigagina emas, balki sifatli o'sishni ta'minlovchi institutsional omil sifatida namoyon bo'ladi.

ESG konsepsiyasining xalqaro rivojlanish bosqichlari quyidagilarni qamrab oladi:

- I bosqich (1990–2000-yillar) — korporativ ijtimoiy mas'uliyat (CSR) g'oyalarining shakllanishi;


- II bosqich (2000–2015-yillar) — ESG ko'rsatkichlari asosida xalqaro baholash standartlarining (UN PRI, GRI, SASB) yaratilishi;

- III bosqich (2015-yildan hozirgi davrgacha) — ESGni milliy siyosat va moliyalashtirish tizimiga integratsiya qilish, “yashil obligatsiyalar” va “ESG-investitsiyalar” orqali amaliy qo'llash.

Bugungi kunda ESG standartlari Yevropa Ittifoqining “Green Deal” tashabbusi, BMTning 2030-yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs), shuningdek, Osiyo taraqqiyot banki va Jahon bankining investitsiya siyosatlarida ustuvor mezon sifatida qabul qilingan.

O'zbekistonda so'nggi yillarda iqtisodiy islohotlar jarayonida barqaror rivojlanish tamoyillari, “yashil iqtisodiyot”, “energiya samaradorligi” va “innovatsion boshqaruv” tushunchalari ESG bilan uyg'un holda rivojlanmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda “2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-436-son² qarori bilan tasdiqlangan ESG tamoyillarini joriy etish, sanoat korxonalarida ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv tamoyillarini (ESG) keng joriy qilish, ESG standartlariga mos investitsiya loyihalarini amalga oshirish tizimini shakllantirish hamda suveren ESG ko'rsatkichlarini ishlab chiqish vazifalari belgilab berilgan bo'lib, bu ESGni milliy iqtisodiy muhitda tatbiq etish jarayonini jadallashtirdi [2].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ESG tamoyillarini joriy etish sanoatni iqtisodiy rivojlantirishga to'g'ridan-to'g'ri emas, balki innovatsiyalar va samaradorlik orqali bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois ESG ta'sir mexanizmlarini tahlil qilish asosida quyidagi tuzilmaviy bog'lanish ishlab chiqildi (1-rasm).



1-rasm. ESGning sanoatni iqtisodiy rivojlantirishga ta'sir mexanizmining tarkibiy tuzilishi³

Ushbu tizimli zanjir tadqiqot doirasida “Environmental – Innovation – Sustainability – Balanced growth” (EISB) modelini ishlab chiqishga asos bo'ldi. Mazkur model ESG tamoyillarini sanoatni iqtisodiy rivojlantirishning sifat ko'rsatkichlari bilan bog'lovchi integratsiyalashgan iqtisodiy mexanizmni ifodalaydi.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda “2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-436-son qarori: <https://lex.uz/ru/docs/-6303230>

3 Muallif ishlanmasi.



EISB modeli to'rtta asosiy elementdan iborat bo'lib, ular o'zaro funksional bog'liqlikda amal qiladi:

1. Ekologik samaradorlik (E). Ushbu bosqichda korxonalarda resurs tejamkor texnologiyalar, chiqindilarni qayta ishlash, energiya tejovchi uskunalar va "yashil menejment" amaliyotlari joriy etiladi. Natijada ekologik samaradorlik darajasi sanoat korxonalari xarajatlarini kamaytirib, ishlab chiqarish barqarorligini oshiradi.

$$E_i = \frac{\text{Energiya tej.} + \text{Chiqindini q/ish.} + \text{Resurs tej.}}{3} \quad (1)$$

2. Innovatsiya va texnologiyalar (I). ESGning ekologik va ijtimoiy yo'nalishlari innovatsiya jarayonlarini rag'batlantiradi, chunki sanoat korxonalari yangi standartlarga moslashish uchun texnologik yangilanishga majbur bo'ladi. Innovatsiyalar darajasi esa sanoat ishlab chiqarishi samaradorligining asosiy omili hisoblanadi.

$$I_i = f(E_i, S_i) \quad (2)$$

Bundan ko'rinadiki, innovatsiya darajasi ekologik va ijtimoiy faoliyat samarasiga bog'liq.

3. Samaradorlik va barqarorlik (S). Innovatsiyalar samarasi orqali ishlab chiqarish xarajatlari qisqaradi, mehnat unumdorligi oshadi va iqtisodiy samaradorlik kuchayadi. Ushbu bosqich ESG–innovatsiya natijasida shakllanadigan iqtisodiy foyda bilan tavsiflanadi.

$$S_i = \frac{\Delta Y_i}{\text{Investitsiya}} \quad (3)$$

4. Barqaror iqtisodiy o'sish (B). Yakuniy bosqichda sanoatni iqtisodiy rivojlantirish faqat miqdoriy emas, balki iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi sifatli o'sish sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayon integral indeks orqali baholanadi.

$$B_i = \frac{E_i + S_i + G_i + I_i}{4} \quad (4)$$

Bu yerda: B_i – sanoat korxonasining umumiy ESG – innovatsion barqarorlik darajasi;

E_i, S_i, G_i – ESG mezonlari bo'yicha baholar;

I_i – innovatsiya samaradorligi indeksi.

EISB modeli quyidagi iqtisodiy mexanizm orqali amalga oshadi:

– ESG impulslari (E, S, G) korxonaning ichki tizimida innovatsion ehtiyoj va investitsiyaviy faollikni rag'batlantiradi;

- innovatsion faoliyat orqali resurs tejamkorlik va samaradorlik ko'rsatkichlari oshadi;
- samaradorlikning o'sishi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va foydani ko'paytiradi;
- boshqaruvning shaffofligi va ijtimoiy ishonch investitsiyaviy muhitni barqarorlashtiradi;
- natijada sanoatni iqtisodiy rivojlantirishning yangi institutsional asosi shakllanadi.

Mazkur modelga ko'ra, ESG tamoyillari sanoatni iqtisodiy rivojlantirishni tezlashtiruvchi vosita emas, balki uning barqarorligini ta'minlovchi tizimli omil sifatida namoyon bo'ladi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ESG konsepsiyasi zamonaviy iqtisodiy siyosat va korporativ rivojlanishning asosiy tamoyillaridan biriga aylanib bormoqda. An'anaviy iqtisodiy o'sish modellari asosan kapital, mehnat, resurslar va texnologiyalarga tayanilgan bo'lsa, bugungi kunda ekologik barqarorlik, ijtimoiy inklyuzivlik va korporativ boshqaruvning shaffofligi ham iqtisodiy dinamikaning muhim mezonlari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Birinchi navbatda, ESG tamoyillarini joriy etgan sanoat korxonalari energiya resurslaridan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish hisobiga ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirmoqda. Bu mahsulot tannarxining pasayishi va raqobatbardoshlikning oshishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ekologik standartlarga rioya etish, ayniqsa Yevropa Ittifoqida CBAM talablari kuchayib borayotgan sharoitda, eksport imkoniyatlarini kengaytirishda muhim strategik ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy omillarning kuchayishi sanoat korxonalari inson kapitali sifatining oshishiga olib kelmoqda. Xodimlar malakasining yuksalishi, mehnat sharoitlari xavfsizligi va korporativ madaniyatning mustahkamlanishi mehnat unumdorligini oshiradi hamda xodimlarning korxonaga sadoqati va natijaga yo'naltirilganligini kuchaytiradi. Bu esa korxonaning innovatsion salohiyatini kengaytiradi.



Korporativ boshqaruv sohasidagi o'zgarishlar — shaffoflik, hisobdorlik va risk-menejmentning takomillashuvi — investorlar ishonchining oshishiga hamda korxonalar kapitallashuvining o'sishiga xizmat qilmoqda. ESG talablariga rioya qiluvchi korxonalar xalqaro moliya bozorlari bilan hamkorlik imkoniyatlarini kengaytiradi, moliyalashtirish xarajatlarini kamaytiradi va barqaror investitsiyalarni jalb etishda ustunlikka ega bo'ladi.

Makroiqtisodiy nuqtai nazardan, ESG amaliyotining kengayishi milliy iqtisodiyotda resurs tejamkorlik, texnologik modernizatsiya va ekologik xavflarning pasayishiga olib keladi. Bu iqtisodiy barqarorlikning uzoq muddatli asoslarini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, ESG standartlarining keng joriy etilishi mintaqaviy rivojlanish, klasterlar faoliyati va sanoat tarmoqlaridagi raqobat muhitini yaxshilab, iqtisodiyotning diversifikatsiyasi va inklyuziv o'sishini ta'minlaydi.

O'zbekiston sharoitida ESGning ahamiyati yanada yuqori bo'lib, bu mamlakat sanoatining modernizatsiya jarayoni, energiya samaradorligining pastligi, resurslardan foydalanish darajasining yuqoriligi va korporativ boshqaruv standartlarini takomillashtirish zarurati bilan izohlanadi. ESG tamoyillarini joriy etish nafaqat korxonalar mikrodarajasida samaradorlikni oshiradi, balki mamlakatning xalqaro raqobatbardoshligini kuchaytirish, eksport geografiasini kengaytirish va investorlar uchun jozibadorlikni oshirishda ham hal qiluvchi omilga aylanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi umumiy xulosaga kelish mumkin: ESG tamoyillari faqat ekologik va ijtimoiy mas'uliyat mezonini bo'lib qolmay, balki iqtisodiy o'sishni barqarorlashtiruvchi, risklarni kamaytiruvchi, innovatsiyalar uchun rag'bat yaratuvchi va korporativ rivojlanishni jadallashtiruvchi kompleks iqtisodiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. ESGni joriy etish orqali sanoat korxonalarining samaradorligi va raqobatbardoshligi oshadi, iqtisodiyot esa diversifikatsiyalangan, resurs tejamkor va ijtimoiy inklyuziv rivojlanish yo'liga o'tadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Amalga oshirilgan tahlil va xulosalarga asoslanib, sanoat korxonalarida ESG tamoyillarini samarali joriy etish hamda ularning sanoatni iqtisodiy rivojlantirishga ta'sirini kuchaytirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. ESG bo'yicha maxsus korporativ bo'limlar tashkil etish. Ya'ni, sanoat korxonalarida ekologik, ijtimoiy va boshqaruv sohalari bo'yicha yagona muvofiqlashtiruvchi tuzilma joriy etilishi kerak. Uning vazifalari:

- ESG strategiyasi va dasturlarini ishlab chiqish;
- hisobotlar tayyorlash;
- risk-menejment va auditni amalga oshirish;
- xalqaro standartlar bilan integratsiyalashtirish.

2. Menejerlar va mutaxassislar uchun ESG bo'yicha malaka oshirish dasturlarini joriy etish. Chunki sanoat korxonalarida ESG strategiyalarini amalga oshirishda kadrlar malakasi muhim ahamiyatga ega. Shu sababli:

- korporativ treninglar;
- xalqaro sertifikatlash (ISO 14001, ISO 50001, ESG reporting);
- universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda ESG ta'lim kurslarini yo'lga qo'yish zarur.

3. Milliy ESG hisobot standartini joriy etish. Ma'lumki, O'zbekistonda sanoat korxonalari ESG hisobotlarini xalqaro talqin asosida yuritmoqda, biroq yagona milliy mezon mavjud emas. Shu bois GRI, SASB, IFRS S1/S2 standartlariga moslashtirilgan Milliy ESG Reporting standartini ishlab chiqish lozim.

4. ESG bo'yicha raqamli platforma yaratish. Unda:

- korxonalar ESG ma'lumotlarini yuklaydi;
- avtomatik tahlil va ESG indeksatsiya amalga oshiriladi;
- investorlar uchun shaffof axborot bazasi yaratiladi.

5. Energiya tejovchi texnologiyalarga o'tishni rag'batlantirishda quyidagilarni hisobga olish:

- energiya auditini majburiy qilish;
- energiya tejovchi uskunalarni xarid qilishda soliq imtiyozlarini qo'llash;
- "yashil kreditlar" va subsidiyalarni kengaytirish.

6. Chiqindilarni boshqarish tizimini modernizatsiya qilish. Ya'ni sanoat korxonalarida:

- qayta ishlash liniyalarini joriy etish;
- chiqindilar klassifikatsiyasini yo'lga qo'yish;
- ekologik monitoring tizimlarini joriy etish maqsadga muvofiq.

7. Mehnat xavfsizligi standartlarini kuchaytirish. Ya'ni sanoat korxonalarida:

- xalqaro OHSAS va ISO 45001 standartlariga o'tish;
- mehnat joylarining xavfsizligini baholash indeksini joriy etish;
- xodimlar uchun muntazam treninglar tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

8. "Yashil innovatsiyalar" inkubatorlarini tashkil etish. Buning uchun sanoat korxonalari huzurida:

- resurs tejamkor texnologiyalar;



- yoqilg'isiz energiya yechimlari;
- qayta tiklanuvchi resurslar bo'yicha ilmiy-amaliy laboratoriyalarni tashkil etish lozim.

Tadqiqot natijalari tahlili shuni ko'rsatadiki, sanoat korxonalarida ESG tamoyillarini joriy etish sanoatni iqtisodiy rivojlantirishga erishishning eng samarali vositalaridan biriga aylanib bormoqda. ESG standartlarini muvofiqlashtirish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish, resurs tejankor texnologiyalarni joriy etish hamda inson kapitaliga investitsiyalarni ko'paytirish orqali tarmoq korxonalarining raqobatbardoshligi oshadi, ularning innovatsion salohiyati kuchayadi va sanoat tarmog'ining umumiy iqtisodiy faoliyati barqarorlashadi. Milliy ESG hisobot standartlarini ishlab chiqish, raqamli monitoring platformalarini yaratish, "yashil" sanoat klasterlari va grant dasturlari kabi choralar esa iqtisodiyotning barqaror diversifikatsiyasi uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Umuman olganda, ESGni korporativ amaliyotga chuqur integratsiya qilish mikro va makro darajada ijobiy natijalar berib, sanoatni iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish asosida mamlakatning uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-4477-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-436-son qarori.
3. Elkington, J. Towards the Sustainable Corporation: Win-Win-Win Business Strategies for Sustainable Development // California Management Review, vol. 36, № 2, 1994, pp. 90–100.
4. Amole, O., & Emedo, M. (2025). Integrating Environmental, Social and Governance (ESG) principles into financial planning for sustainable corporate growth. Asian Journal of Advanced Research and Reports, 19(1), 56–64. <https://doi.org/10.9734/ajarr/2025/v19i1861>
5. Shaikh, I. (2022). Environmental, social, and governance (ESG) practice and firm performance: An international evidence. Journal of Business Economics and Management, 23(2), 218–237. <https://doi.org/10.3846/jbem.2022.16202>
6. Algarhi, A., & Karimazondo, W. (2024). The impact of ESG on economic growth: Evidence from BRICS+ countries. Theoretical Economics Letters, 14(9), 2037–2062. <https://doi.org/10.4236/tel.2024.149106>
7. Namoog, S., & Abubakari, Z. (2025). The impact of environmental, social and governance (ESG) factors on sustainable economic growth in Ghana: The mediating roles of human capital development and technological innovation. African Journal of Empirical Research, 6(1), 41–51. <https://doi.org/10.51867/ajernet.6.1.5>
8. Diugowanets, V. et al. (2025). ESG management as a driver of sustainable transformation of enterprises and organizations. Ekonomika ta suspilstvo, Issue 79, pp. 618–622.
9. Abdukarimovich, K. A. et al. Problems of security of economic and ecological systems in the countries of the Central Asian region [Elektron resurs].
10. <https://lex.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
